

## BIOLOGIK SUYUQLIKLAR YOPISHQOQLIK KOEFFITSIENTINI STOKS USULIDA ANIQLASH

**Rahimova Volida Karim qizi**  
*Buxoro davlat tibbiyot institute*

**Annotatsiya:** Yopishqoqlik katta bo'lgan suyuqliklarning yopishqoqlik koeffitsientini aniqlashda Stoks usuli qo'llaniladi. Bu usul silindr naydagi yopishqoq suyuqlikga tashlangan sharchaning tushish tezligiga qarab shu suyuqliklarning yopishqoqlik koeffitsienti aniqlanadi. Suyuqlikda harakatlanayotgan sharchaga ko'rsatilayotgan qarshilik kuchi-  $F_q$  bilan suyuqlikning yopishqoqligi orasidagi bog'lanishni ifodolovchi formulani Stoks keltirib chiqargan. Ushbu maqolada Stoks usulida dinamik qovushqoqlikni aniqlashni tushuntiramiz.

**Kalit so`zlar:** Silindrik shisha idish, yopishqoq suyuqlik-glitsirin, metall sharchalar, mikrometr yoki shtangentsirkul, sekundomer, dinamik qovushqoqlik.

### ASOSIY QISM

Suyuqlikda harakatlanayotgan sharchaga ko'rsatilayotgan qarshilik kuchi-  $F_q$  bilan suyuqlikning yopishqoqligi orasidagi bog'lanishni ifodolovchi formulani Stoks keltirib chiqargan.

$$F_q = 6\pi\eta rv \quad (1)$$

Bu yerda  $\eta$ -suyuqlikning yopishqoqlik koeffitsienti,  $r$  -sharchaning radiusi,  $v$  -sharchaning suyuqlikdagi harakat tezligi. Suyuqlikda harakatlanayotgan sharchaga uchta kuch ta'sir etadi:  $F_q$ -qarshilik kuchi (1),  $F_{og'}$  - ogirlik kuchi va  $F_{it.}$  - itarish kuchi yoki Arximed kuchi  $F_A$ .

1 .Sharchaning og'irlik kuchi  $F_{og'}$ . bunda  $\rho$ -sharcha moddasining zichligi hisobga olingan holda qo'yidagicha yoziladi:

$$F_{og'} = 4/3 \pi r^3 \rho g \quad (2).$$

2. Suyuqlik tomonidan ta'sir etuvchi itarib chiqaruvchi kuch yoki Arximed kuchi:

$$F_A = 4/3 \pi r^3 \rho_0 g \quad (3)$$


3.Qarshilik kuchi:

$$F_q = 6\pi\eta rv$$

Og'irlik kuchi va Arximed kuchi kattalik jihatdan o'zgarmas bo'lib qarama-qarshi tomonga yo'nalgandir. Qarshilik kuchi tezlikka proportsional bo'lib vektor sifatida itarish kuchi tomon yo'nalgandir. Uchta kuch muvozanatlashgan paytdan boshlab sharcha teks harakatlanadi. Sharchaning tekis harakatlanish sharti:

$$F_{og'} = F_q + F_A, F_{og'} + F_q + F_A = 0 \quad (4) \quad \text{yoki}$$

$$4/3 \pi r^3 \rho g = 6\pi\eta rv + 4/3 \pi r^3 \rho_0 g \quad (5)$$



1-rasm

(5) formuladan foydalanib  $v$  - sharchaning tekis harakat (tushish) tezligi yoki  $\eta$  - qovushqoqlik koeffitsienti uchun qo'yidagi formulani keltirib chiqarish mumkin:

$$g = \frac{2(\rho - \rho_{\infty})r^2 g}{9\eta} \quad \text{yoki} \quad \eta = \frac{2}{9} \cdot \frac{gr^2(\rho_{\infty} - \rho_0)}{g} \quad (6)$$

(5) formula faqat sharchaning suyuqlikdagi harakati uchungina emas. Balki uning gazdagi harakati uchun ham o'z kuchini saqlab qoladi. Undan ayrim hollarda havo tarkibidagi chang zarrasining cho'kishi vaqtining hisoblashda foydalanish mumkin. Buni quyidagi misol yordamida tushuntirish mumkin. Havo uchun – turli chang zarralari muallaq bo'lgan muhitda qovushqoqlik  $\eta = 0,000175$  Pas.s. O'lgan kishilar o'pkalarida topilgan chang zarralaridan 80% ning o'lchami 5mkm dan 0,2 mkm gacha ekan. Agar chang zarralarini shar shaklida deb olib, uning zichligini er zichligiga ( $\rho = 2,5 \text{G/sm}^3$ ) teng deb, chang zarrasining tushish tezligini (6) formula yordamida hisoblansa, uning qiymati  $0,2 - 0,0003 \text{ sm/s}$  bo'lishini topish mumkin. Bunday chang zarrasi havo oqimi va Broun harakati bo'lмаган шароитда баландлиги 3m bo'lган xona ichida to'la cho'kishi uchun 12 sutka vaqt lozim bo'lar ekan.

Tekshiriladigan har bir suyuqlik uchun doimiy kiymat C ni quyidagicha hisoblash mumkin:  $C = \frac{2}{9} \cdot (\rho_{sh} - \rho_0) \cdot g$  (7), bunda g- erkin tushish tezlanishi bo'lib XBS da uning qiymati  $g = 9,8 \text{ m/sek}^2$ . (6) va (7) dan foydalangan holda ishchi formulani quyidagicha yozish mumkin:

$$\eta = C \frac{r^2}{v} \quad (8)$$

Sharchaning harakat tezligi  $v$  ni quyidagi formuladan topish mumkin:

$$v = \frac{h}{t} \quad (9)$$

h – Sharchaning suyuqlikda tekis harakatdagi bosib o'tgan yo'li.

t - sharchaning h - masofasani bosib o'tishdagi vaqt.

### **Qurilmaning tuzilishi**

Asbob ichiga tekshirilayotgan suyuqlik solingen shisha silindrda iborat bo'lib, silindrli idish maxsus taglik yordamida laboratoriya xonasi devoriga mahkamlangan (1-rasm). Qonning normadagi qovushqoqligi  $0,4 \div 0,5 \text{ Pa}\cdot\text{s}$  bo'lib, patalogiyada esa  $1,7 \div 2,29 \text{ Pa}\cdot\text{s}$ . Bu esa eritrotsitlarning cho'kish reaktsiyasi SOE (Eritrotsitlarning cho'kish tezligi) ga ta'sir ko'rsatadi. Bir xil yuqumli kasalliklarda qonning yopishqoqligi normadan katta bo'ladi. Masalan: qorin tifi va sil kasalligida esa kamayib ketadi.

**Ish bajarish tartibi:**

1. Mikrometr yoki shtangentsirkulning tuzilishi bilan tanishib, sharchani ajratib oling va uning diametrini o'lchang, so'ngra radiusini toping.

2. Suyuqlik to'ldirilgan silindrning markaziga yaqin bo'lgan vaziyatni tanlab sharchani tashlang.

3. Sharcha yuqoridagi birinchi belgiga kelgan paytda sekundomerni ishga tushiring.

4. Pastdagi 2 belgiga kelgan paytda sekundomerni to'xtatib vaqtini yozib qo`ying. Tajribani uch marta takrorlang.

5.  $\rho_{sh}$  ba  $\rho_0$  - larning qiymatlarini bilgan holda suyuqlikning qovushqoqlik koefitsientini (8) – formuladan foydalanib aniqlanadi. Topilgan natijalar esa 1 - jadvalga yoziladi.

6. Bu ishda yopishqoqlik koefitsienti uchun olingan qiymatni SI birliklar sistemasiga o'tkazing. O'lhash natjalarning o'rtacha arifmetik qiymati, o'rtacha absolyut xatolik va ularning nisbiy xatoliklari ham topilib 1- jadvalga yoziladi.

8. O'zgarmas kattaliklar: Glitsirin zichligi  $\rho_0 = 1260 \text{ kg/m}^3$ , suv uchun  $\rho_0 = 1000 \text{ kg/m}^3$ , o'simlik moyi uchun  $\rho_0 = 900 \text{ kg/m}^3$ , sharcha uchun  $\rho = 8000 \text{ kg/m}^3$ ,

T/r	$\eta$	$\langle \eta \rangle$	$\Delta_\eta$	$\langle \Delta_\eta \rangle$	$\mathcal{E}(\%)$	$\eta_h$
1						
2						
3						

**XULOSA**

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Stoks usulidan qovushqoqligi baland bo`lgan suyuqliklarning qovushqoqliklarini aniqlashda foydalilanadi. Buning uchun slindr idish ichidagi suyuqlikka tekis harakatlana oladigan sharcha tashlanib uning tushish vaqtleri o'lchanadi va (8) formula yordamida dinamik qovushqoqlik aniqlanadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI**

- Remizov A.N. "Tibbiy va biologik fizika" 2005
- Umarov S.X, Xalloqov F.K, Tibbiy va biologik fizika darslik 2024 yil.
- Xalloqov F.K, Fizika o'quv qo'llanma 2024 yil